

TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISABI VA OMBOR XO'JALIGI TASHKIL ETILISHINING AUDITI

Ikromov Aziz

Annotatsiya. *Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tovar-moddiy zahiralar hisobi va ombar xo'jaligi faoliyatini tashkil etishning auditni ko'rib chiqiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda korxonaning samarali faoliyati va uning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan zahiralar va ularning boshqarilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun tovar-moddiy zahiralarining to'g'ri hisobini yuritish, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish va ombar xo'jaligining to'g'ri boshqarilishini ta'minlash muhim hisoblanadi.*

kalit so'zlar: *Tovar-moddiy zahiralar, buxgalteriya hisobi, ombar xo'jaligi, audit, nazorat, moliyaviy barqarorlik.*

Abstract. *This master's thesis examines the audit of accounting and the organization of warehouse management for inventory. In the modern economy, the efficient operation and financial stability of an enterprise are largely dependent on its inventory and the management of these resources. Therefore, it is crucial to maintain accurate accounting of inventory, ensure their efficient use, and organize effective warehouse management.*

key words: *inventory, accounting, warehouse management, audit, control, financial stability.*

KIRISH

Tovar-moddiy zahiralar hisobi va ombar xo'jaligi tashkil etilishining audit mavzusi hozirgi kunda nafaqat O'zbekiston balki xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyot rivojlangan sari, kompaniyalar va korxonalar faoliyati ko'proq tovar-moddiy resurslarga bog'liq bo'lib qolmoqda, bu esa resurslar boshqaruvi va ularga oid hisobotlarning aniq va ishonchli bo'lishini talab qiladi.

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy maydonga integratsiyalashuvi davomida, 2017-yildan boshlab, davlat miqyosida xalqaro buxgalteriya hisob va audit standartlarini (IFRS va ISA) joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirildi. Tovar-moddiy zahiralar hisobini to'g'ri yuritish bu xalqaro standartlarning muhim qismidir. Ushbu jarayon, ayniqsa, 2020-yilda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida katta ahamiyat kasb etdi, chunki ko'plab korxonalar xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash uchun o'z buxgalteriya va audit tizimlarini yangiladi.

MUHOKAMA VA TAHLIL

"Tovar-moddiy zaxiralari" deb nomlangan O'zbekiston Respublikasi BHMSda tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga xo'jalik yurituvchi subyektlarning quyidagi aktivlari kiritiladi:

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishlatalishi ko'zda tutilgan xomashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idishlar, ehtiyyot qismlari, boshqa materiallar hamda arzon baholi tez eskiruvchi buyumlar;

Tugallanmagan ishlab chiqarish;

Xo'jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot va tovarlar.

Moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tutgan o‘rinlari va xususiyatlariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- xomashyo va asosiy materiallar;
- yordamchi materiallar;
- sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar;
- chiqindilar;
- yoqilg‘ilar;
- idish va idish materiallar;
- ehtiyyot qismlar;

inventar va xo‘jalik jihozlari;

Tovar-moddiy zaxiralarini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning maqsadiularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to‘g‘ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchlilagini va tovar-moddiy zaxiralar bilan bog‘liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash lozim. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzulmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o‘tkazish va risklarni baholash orqali erishiladi.

Zaxiralarini tekshirish, ular hajmi katta bo‘lgan korxonalarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha hisobot ko‘rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob’ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zaxiralar»(120-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (130-satr)»,

«Tayyor mahsulot»(140-satr), «Sotish uchun olingan tovarlar»(150-satr) degan moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur. Shu bilan birga, sintetik va analitik hisob ma’lumotlarining muvofiqligiga ishonch hosil qilishi muhimdir. Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish xarajatlariga olib borish va ularning baholarini tekshirish, ishlab chiqarishga sarflash me’yorlari va boshqalarini tekshirish zarur. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga da’vo qo‘zg‘atishning o‘z vaqtidaligi va to‘g‘riligi hamda yo‘ldagi (korxonaga etib kelmagan) materiallar qoldig‘ining haqqoniyligini ham tekshirish kerak.

Yo‘ldagi moddiy boyliklarni tekshirishning vazifalari: yo‘ldagi moddiy boyliklar sifatida hisobda turgan har bir jo‘natishning asoslilagini aniqlash, yuklarni etkazib berishi muddatlarining o‘tib ketmaganligini aniqlash, xo‘jalik tomonidan yuklarni qidiruv choralarining ko‘rilishini aniqlash, bosh buxgalter va ta’minot xodimlari tomonidan yo‘ldagi moddiy boyliklarni hisobga olish ustidan nazorat o‘rnatalishi kabilarini aniqlashdan iborat. Bulardan tashqari hisob ma’lumotlarining haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga mos kelishi va tovar mahsulotlar ishlab chiqarish to‘g‘risidagi hisobotlarda qo‘sib yozish faktlari aniqlanadi.

Tekshiruv jarayonida auditor quyidagilarni aniqlashi lozim:

* zaxiralarining haqiqatda mavjudligi;

* zaxiralar bilan bog‘liq barcha muomalalarining buxgalteriya hisobi schotlarida to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilganligi;

* barcha zaxiralar korxona mulki ekanligi ya’ni ularga mulkiy huquq mavjudligi, qarz

sifatida aks ettirilgan summalar esa majburiyat ekanligi;

* zaxiralarni va ular bilan bog‘liq majburiyatlarini baholashning to‘g‘riliqi;

tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tamoyillari to‘g‘ri tanlanilganligi va qo‘llanilishining to‘g‘riliqi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tekshirishda quyidagi ma‘lumot manbalaridan foydalaniladi:

- Moddiy boyliklarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va berishga aloqador me’yoriy hujjatlar.

- Hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruq.

- Tovar - moddiy zaxiralalar bilan bog‘liq muomalalarni rasmiylashtirishga doir dastlabki hujjatlar.

- Tashkiliy-huquqiy hujjatlar va materiallar.

- Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishga doir buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobotlari.

Auditor tekshiruvga kirishish chog‘ida tekshiruvning ushbu sohasi bo‘yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishi lozim. №4-«Tovar-moddiy zaxiralalar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti talablariga muvofiq korxonaning hisob yuritish siyosati to‘g‘risidagi buyrug‘ida tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning uslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim:

- * asosiy vositalar bilan inventar va xo‘jalik ashyolari o‘rtasidagi chegaralar;

- * tovar-moddiy boyliklarni sotib olish (tayyorlash)ni hisobga olish;

- * tovar-moddiy boyliklarni ularning turlari bo‘yicha hisobdan o‘chirish chog‘ida baholash usullari.

Mijoz-korxona rahbariyati, u yoki bu hisob yuritish tamoili moliyaviy natijaga ta’sir qilishini bilsada, hisob siyosatiga kiritilgan ma‘lumotlarning zarurligiga ko‘p hollarda etarli ahamiyat bermaydi. Mana shuning oqibatida har xil qoidabuzarliklar kelib chiqadi. Ulardan eng ko‘p tarqalgani tanlangan hisob yuritish usullariga yoki ularni qo‘llashda izchillikka rioya qilinmasligi hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda qo‘llaniladigan dastlabki hujjatlar shakllari korxonadagi moddiy qiymatliklarning turlari va guruhlariga bog‘liq.

XULOSA

Tovar-moddiy zaxiralalar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va hisoblash jarayonida jiddiy kamchiliklar mavjud. Joriy holatda ko‘plab korxonalarda zaxiralalar hisobi qo‘lda yoki qisman avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshirilmoqda, bu esa xatoliklar, kechikishlar va ma‘lumotlarning noaniqliklariga olib kelmoqda. Asosiy muammolardan biri tizimning yetarlicha raqamlashtirilmaganligi va buxgalteriya hamda audit jarayonlarida zaxiralarning aniq va tezkor hisobotini ta’minlash qiyinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. // Soliqlar va bojxona xabarları, 2000 yil 13 iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi “Auditorlik

tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi PQ–615-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagи “Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–907-sonli Qarori.

4. Alimov, M. (2019). Buxgalteriya hisobida zaxiralalar baholash usullari. Toshkent: "O‘zbekiston universiteti nashriyoti".

5. Karimov, A. (2020). O‘zbekistonning moliyaviy hisob-kitob tizimi. Toshkent: "Iqtisodiyot va ta’lim".